

“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot “O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida (matnda bundan buyon – Jamiyat deb yuritiladi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur;

- korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati;

- korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- **korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

- **korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** – Jamiyat faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas‘ul bo‘lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas‘ul ijrochilarni o‘z ichiga olgan hujjat;

- **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

- **korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash** – Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat;

- **qoldiq xavf-xatar** – aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

- **maxsus bo‘linma** – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens nazorat departamenti.

4. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 1 martga qadar amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Jamiyat tizimiga kiruvchi barcha tarkibiy va hududiy bo‘linmalarda amalga oshiriladi.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Jamiyatning Komplayens nazorat departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Komplayens nazorat departamenti tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

-“O‘zagrosug‘urta” AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

- “O‘zagrosug‘urta” AJning tarkibiy va uning hududiy bo‘linmalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ma’sullar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

- Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

8. “O‘zagrosug‘urta” AJ tuzilmasiga kiruvchi tarkibiy va uning hududiy bo‘linmalaridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ma’sullar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ishlab chiqish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

9. Komplayens nazorati departamenti tomonidan Jamiyatning (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

10. “O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

11. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

- “O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi; ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruv materiallari; odob-axloq

komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari; korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

- Komplayens nazorat departamenti tomonidan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

12. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

- "O'zagrosug'urta" AJ faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma'lumotlar;

- Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan "O'zagrosug'urta" AJ faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

13. Komplayens nazorat departamenti Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

- "O'zagrosug'urta" AJning xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

- Jamiyat tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

- o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

- hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

- xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

- vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

14. "O'zagrosug'urta" AJ faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

- past;

- o'rta;

- yuqori.

15. Komplayens nazorat departamenti tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

- inson omilini qisqartirish va Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

- Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

- "O'zagrosug'urta" AJ xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

- rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida "O'zagrosug'urta" AJ

tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

- davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

- "O'zagrosug'urta" AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Jamiyat tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 15-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

18. Jamiyat Komplayens nazorat departamenti tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda Boshqaruv apparatining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

19. "O'zagrosug'urta" AJ tuzilmasiga kiruvchi tarkibiy va uning hududiy bo'linmalari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, mazkur loyihalar Jamiyat Komplayens nazorat departamentiga umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

20. Komplayens nazorat departamenti tomonidan "O'zagrosug'urta" AJ faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Jamiyatning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga har yili 1 fevralga qadar kiritiladi.

21. Komplayens nazorat departamenti tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi xujjatlar shakllantiriladi:

- davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;
- davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestrini shakllantirish va yuritish tartibi

22. Agentlik tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan "O'zagrosug'urta" AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantiriladi.

23. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri loyihasi Agentlik tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun o‘n besh kundan kam bo‘lmagan muddatga “E- anticor.uz” veb-saytiga joylashtiriladi.

24. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o‘n kun ichida “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali “O‘zagrosug‘urta” AJga yuboradi.

25. Komplayens nazorat departamenti Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

26. “O‘zagrosug‘urta” AJ boshqaruvi raisi har yili 1 martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi,
 filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
 aniqlash va baholash Uslubiyotiga
 1-ILOVA

**“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi, filiallari faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)
 TAVSIFI**

T/r	Funksiya nomlanishi	Funksiya doirasida bajariladigan jarayon	Jarayonlarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (uning F.I.O. hamda lavozimi)
1. “O‘zagrosug‘urta” AJ			
1.1. “O‘zagrosug‘urta” AJning tarkibiy bo‘linmasi			
1.1.			

“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi,
filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash Uslubiyotiga
2-ILOVA

**“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatar
darajasiga baho berish bo‘yicha
MEZONLAR**

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	“O‘zagrosug‘urta” AJning faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Jamiyatning faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	“O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Jamiyatning faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
O'rta*	"O'zagrosug'urta" AJning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Jamiyatning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	"O'zagrosug'urta" AJ faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi Jamiyatning faoliyatini (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoiyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past**	"O'zagrosug'urta" AJning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	Jamiyatning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	"O'zagrosug'urta" AJning faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyahasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud emas

*Komplayens nazorat departamenti tomonidan "O'zagrosug'urta" AJning faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o'rta darajada deb baholash Jamiyat Boshqaruvi raisi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

**"O'zagrosug'urta" AJning faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo'lsa, o'sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.

**“O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning
XARITASI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmi	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Mas’ul ijrochilar
	1. “O‘zagrosug‘urta” AJ tarkibiy bo‘linmaning nomi*						
	1. Tarkibiy bo‘linmaning funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
	2. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*						
2.	1. Tarkibiy bo‘linmaning funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

“O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi,
filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash Uslubiyotiga
4-ILOVA

**“O‘zagrosug‘urta” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar